BUXORO VILOYATI JONDOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 28-oktabr | 348-2-35-Q/24 | Jondor tuman hokimligi

Tuman hokimining 2024-yil 17-sentabrdagi 310-2-35-Q/24-sonli qarori ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-yanvardagi 31-sonli “O‘rmonlarning davlat hisobini va monitoringini yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarorining 6-ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 76-moddasi, O'zbekiston Respublikasi “O'rmon to'g'risida” gi O'RQ-475-sonli qonunining 18-moddasiga va Jondor davlat o'rmon xo'jaligining 2024-yil 12-avgustdagi 267-sonli xatiga asosan “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan Jondor davlat o'rmon xo'jaligida amalga oshirilgan o'rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlarini yakuniy natijalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hokimining 2024-yil 17-sentabrdagi 310-2-35-Q/24-sonli qarorini ilovasiga qisman o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Jondor davlat o'rmon xo'jaligi balansida bo'lgan 76036,0 gektar yer maydoni va mavjud o'rmonzorlari hisobotidagi yer toifalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jondor davlat o'rmon xo'jaligi o'rmon fondi yerlarida noqonuniy yerdan foydalanish ishlarini bartaraf etish hamda kelgusida yo'l qo'ymaslik, o'rmonzorlar va ko'p yillik daraxtzorlarni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun o'rmon xo'jaligi direktori (J.Xudoyqulov) shaxsan javobgar ekanligi qayd etilsin

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari Sh.Jumayevga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.XUDOYEV**

Jondor tuman hokimining
2024-yil 28-oktabrdagi
348-2-35-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Бухоро вилояти Жондор тумани Жондор давлат ўрмон хўжалигининг ер майдонларида "Яшиллойиҳа" лойиҳалаш институти томонидан ўтказилган ўрмон тузиш ишларининг ер турлари бўйича тақсимланиши

Умумий майдон	Ўрмон ерлари, га										Ўрмонсиз ерлар, га											Ўрмонсиз ерлар - жами:
	Ўрмон билан қопланган		Туташмаган маданий ўрмон	ўрмон ихолхонаси ва плантация	Ўрмон билан қопланмаган					Ўрмон ерлари - жами:	хайдаладиган ер	пичанзор	яйлов	сувлар ўрни	боғ, узумзор	йўллар, кесимлалар	аҳоли яшаш жойлари	ботқоқ, шўр ерлар	қумликлар	тақирлар	бошқа ерлар	
	жами	шу жумладан маданий ўрмон			сийрак ўрмон	ёнган, нобут бўлган дарахтзор	кесилган	яланглик	ўрмон билан қопланмаган майдон - жами													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23
76036.00	63116.00	16648.00	0.00	29.75	3825.50	0.00	0.00	4663.64	8489.14	71634.89	96.66	0.00	3144.60	2.90	13.80	22.80	8.10	1100.00	0.00	0.00	12.25	4401.11